

VOLUME II | ISSUE 1 | JANUARY

Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 1-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-1

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-1

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-1>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.*

*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.***

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

KADIROV Utkur Sakidjanovich*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqqa san'ati instituti
dotsenti v.b*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10570734>

CHOLG'U IJROCHILIK MAHORATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

ANNOTATSIYA

Yurtimizda amalga oshirilayotgan dasturlar natijasida musiqiy ta'limga bo'lgan e'tiboni alohida e'tirof etish lozim. Tarixiy, madaniy va ma'naviy-axlokiy kadriyatlarining keng qatlamlarini qayta idrok etish san'atning barcha sohalarida bo'lganidek, musiqiy san'atda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yosh sozandalar bilan ishlashda o'ziga xos maqsad va vazifalar qo'yilgan bo'lsada, ijro jarayonida sohaga tegishli muammolar ham mavjud. Mazkur maqolada cholg'u ijrochiligida tahsil olayotgan talabalarning ijro mahorati va ko'nikmalarining shakllantirish borasida uslubiy tavsiyalar berilib, shu bilan birga, mavjud kamchiliklarning yechimi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: musiqiy ta'lim, san'at, sozanda, ijrochilik, uslub, mahorat, ko'nikma, tovush, milliy cholg'ular, applikator.

INSTRUMENT PERFORMANCE SKILLS: PROBLEMS AND SOLUTIONS

ANNOTATION

As a result of the programs implemented in our country, the attention to musical education should be recognized. The re-perception of the broad layers of historical, cultural and spiritual-moral cadres is evident in musical art, as in all areas of art. While at all stages of the educational system, specific goals and objectives are set when working with young musicians, in the process of execution there are also problems related to the industry. This article provides methodological recommendations on the formation of performance skills and skills of students studying in the performance of the instrument, and at the same time, the solution of existing shortcomings is highlighted.

Key words: musical education, art, creator, inventor, style, craftsmanship, kunikma, tovush, million cholgular, applicatura.

НАВЫКИ ИГРЫ НА ИНСТРУМЕНТЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Результатом программ, реализуемых в нашей стране, должно быть признано внимание к музыкальному образованию. Переосмысление широких слоев исторических, культурных и духовно-нравственных кадров очевидно в музыкальном искусстве, как и во всех областях искусства. В то время как на всех этапах системы образования при работе с молодыми музыкантами ставятся конкретные цели и задачи, в процессе исполнения также возникают проблемы, связанные с исполнительством. В данной статье даются методические рекомендации по формированию исполнительских умений и навыков у студентов, обучающихся игре на инструменте, и в то же время просвещается решение существующих недостатков.

Ключевые слова: музыкальное образование, искусство, солист, исполнение, стиль, техника, навыки, звук, национальные инструменты, аппликатура

Bugungi kunda milliy qadriyatlarimiz istiqlol madaniyatini yaratishga negiz bo‘lib xizmat qilari ekan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan milliy an‘analarimiz va xususan cholg‘u ijrochilik san‘atini imkoni boricha tiklash va o‘rganish hozirgi davrda muhim vazifalardan biridir.

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning amalga kiritilishi, davlat rahbarining *“Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”*gi qarori yangi bosqichni boshlab berdi [1].

Bunday islohotlarni olib borishdan maqsad yurtimizda sog‘lom, barkamol, bilimli va yuksak ma‘naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iboratdir. Mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta‘lim va tarbiya berish tizimi avvalo zamon talablari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi lozim.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan dasturlar natijasida musiqiy ta‘limga bo‘lgan e‘tibor kuchayib, o‘zbek milliy cholg‘ularining turlari bo‘yicha musiqiy ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Uzlaksiz musiqiy ta‘lim, ya‘ni bolalar musiqa va san‘at maktablari, musiqa va san‘at litsey-kollejlari, so‘ngra oliy ta‘lim muassasalarida ta‘limning davom ettirilishi - yosh ijodkorlarni mukammal bilimlarga ega bo‘lishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy, madaniy va ma‘naviy-axlokiy kadriyatlarining keng qatlamlarini qayta idrok etish san‘atning barcha sohalarida bo‘lganidek, musiqiy san‘atda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Milliy tafakkurdagi tub yangilanishlar ma‘naviyatimizning asosiy o‘zagi bo‘lishi va uni ijtimoiy ongning bugungi darajasiga muvofik yangi talablar asosida baholash zaruriyatini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi o‘quv tizimida “An‘anaviy ijrochiligi” kafedrasida 1972-yil o‘z faoliyatini boshlagan. Hozirgi kunda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti tashkil etilib “Maqom cholg‘u ijrochiligi” yo‘nalishi bo‘lib ta‘lim tizimi davom ettirib kelmoqda. Mumtoz asarlarimiz insonni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, insonparvarlikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham bunday asarlar o‘z dolzarbligini yuqotmagan holda, yetishib kelayotgan barkamol avlod tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi va barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo‘lib qolaveradi.

Shu bois yurtimizda musiqa san‘atini rivojlantirish, yosh iste‘dodlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Musiqa ijrochilik san‘ati doimiy rivojlanib, zamon texnologiyalaridan foydalanilgan holda yangilanib boradigan, keng qamrovli ijodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida yosh sozandalar bilan ishlashda o‘ziga xos maqsad va vazifalar qo‘yilgan bo‘lsada, ijro jarayonida sohaga tegishli muammolar ham mavjud. Talabalar musiqa va san‘at litsey-kollejlarida muayyan ijro dasturlarini o‘zlashtirib, bilim va ijrochilik ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Shunday bo'lsada, oliy o'quv yurtiga o'qishga qabul qilingandan keyin ham ularda qator kamchiliklarni kuzatish mumkin:

- yosh sozandalarning ijrolarida badiiylikning yetishmasligi;
- asarni shakl va ijrochilik tomonidan tahlil qila olmasligi;
- qo'l barmoqlar joylashuvini cholg'u dastasiga to'g'ri qo'yilmaganligi;
- ijro etish vositalarini (kamon, mediator, noxin) noto'g'ri ushlashi;
- nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilmaganligi va h.k.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qish tizimi oldingi bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Chunki, bu yerda talaba o'z mutaxassisligi borasida muayyan yo'nalishda jiddiy shug'ullanishga to'g'ri keladi. Bu borada ijrochining yoshi, o'zlashtirgan bilimlari, tushunchalari va dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Ya'ni, talaba muayyan sohani chuqurroq anglash bilan birga va yangi bir muhitga o'zini moslay boshlaydi. Demak, zamonaviy talaba yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun yuqori darajadagi tajribaga erishish maqsadida tinmay shug'ullanishi, o'z ijrosi borasida izlanishi talab etiladi [2].

Yuksak kasb mahorati, teran bilimdonlik, nozik did bilan ko'hna milliy an'analar va ustozlar ijrochilik maktablariga tayanib yaratilgan asarlarning mazmun mohiyatini anglashga harakat qilishlik lozim bo'ladi.

Konservatoriyaning professor-o'qituvchilari talabalarning musiqiy qobiliyati va ijrochilik mahoratini yanada rivojlantirish maqsadida, ularning har biriga alohida ijodiy yondoshadilar. Ijrochilik mashg'ulotlari jarayonida u yoki bu cholg'uda ijro etish sir-asrorlari o'rgatib boriladi. Shunday bo'lsada, cholg'uda chalishni o'rgatish borasida ham zamonaviy ta'limning barcha sohalarida keng qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'zining ijobiy samarasini beradi. O'qituvchi tomonidan berilayotgan ma'lumotlarni talaba mustaqil ravishda o'zlashtiradi, o'qishga ijodiy yondoshib, bilim doirasini kengaytirib boradi va shaxsiy fikrini yorqin ifodalaydi.

Bu jarayonda talaba o'zlashtirib borayotgan bilimlarini o'qituvchi nazorat qilishi, uni to'g'ri yo'naltirib, ma'lumotlarga to'g'ri jalb qilishi zarur. Mazkur texnologiyalar guruhli dars mashg'ulotlariga mo'ljallangan bo'lsada, darslar yakka tarzda olib boriladigan cholg'u ijrochiligi yo'nalishlarida ham ushbu pedagogik texnologiyalarning ayrimlaridan, masalan "FCMY", "SWOT", "Nima uchun", "Blis-so'rov", "Bilaman, bilmayman, bilishni hohlayman" kabi sxemalaridan qisman, ba'zan og'zaki usulda, ba'zan mustaqil ish tariqasida foydalanishi mumkin. Ushbu sxema muayyan asar ijrosida uchraydigan muammolarning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri: tizimli, ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

Ijrochilik mahorati deganda faqat asar ijro saviyasi emas, balki asarni yuqori badiiy darajada, uning xarakterini to'liq ochib berilgan mukammal ijrosini tushunish lozim. Bunga erishish uchun quyidagi kamchiliklarni bartaraf etish va ko'nikmalarni o'zlashtirish talab etiladi:

- aniq applikaturani belgilab olish (qo'l barmoqlarini cholg'u dastasida joylashuvi);
- ijro vaqtida o'ng va chap qo'llarda uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish;
- asar ijrosi uchun kerakli barcha nazariy ma'lumotlarni chuqur o'zlashtirish;
- ijro etilayotgan asarni shakl va ijrochilik tomonidan tahlil etib chiqish;
- kamon, mizrob, nohin yordamida ishlash, artikulyatsiya talablarini o'zlashtirish;
- nota matnini to'liq, xatosiz yod olish;
- tovush sifati va xususiyatini yaxshilash;
- asar uchun xos bo'lgan musiqiy ijro bezaklarini to'g'ri tanlash;
- asarni ijrochilik yo'nalishi (vohaviy maktab) va uslubini aniqlash;
- tovushni boshqarish ko'nikmasini to'liq o'zlashtirish;
- mavjud ijro namunalarini kompyuter texnologiyalari yordamida tinglash va tahlil qilish;
- ijrochilik amaliyoti, konsert ijrochiligi, konservatoriyadagi boshqa bo'limlar konsertlarini muntazam kuzatib borish, hamda ulardan xulosalar chiqarish;

Soʻz ijrochilik borasida borar ekan yana bir muhim vositaga toʻxtalib oʻtish maqsadga muvofiqdir. Bu ijrochilik apparatining qoida va tovush chiqarish vositalari masalasidir. Har bir cholgʻu sozini chalishga oʻrgatishdagi eng zarur shartlardan biri ijrochilik apparatini tartibga solishdir.

Ijrochilik apparati, keng maʼnoda olganda, xilma-xil tushunchalarni, yaʼni ijrochining oʻtirish yoki turish holati va musiqa cholgʻusining joylashtirilishi, chap va oʻng qoʻllarining holati harakati, mizrob (mediator), noxun, kamon (смычок), choʻp (changda) ni ushlashni oʻz ichiga oladi.

Shuning uchun chalishga oʻrgatishning dastlabki paytlarida amaliy mashgʻulotlarga kirishilar ekan, oʻqituvchi oʻz shogirdining qoʻllarini toʻgʻri tutish, toʻgʻri oʻtirish yoki turishiga alohida eʼtibor berishi zarur. Sozandaning dastlabki tayyorgarligi davrida oʻqituvchi tomonidan yoʻl qoʻyilgan xato uning ijrochilik faoliyatida jiddiy kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Sozanda turli musiqa cholgʻularini chalayotganida qiynalmasligi uchun qulay, shu bilan birga, tashqi tomonidan qaralganda chiroyli va ixcham oʻtirishni yoki turishni bilishi kerak.

Noxun bilan yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga bir marta zarb berish chertma-torli asboblarda tovush chiqarishning asosiy usulidir. Tovush chiqarishning mana shu ikki usuli hamda ularni kombinatsiyalash (torlarda faqat pastga, faqat yuqoriga zarb berishni turli izchillikda birlashtirish, torlarga berilayotgan zarblar chastotasini oʻzgartirish va boshqalar) yoʻli bilan tovush chiqarishning xilma-xil usullarini hosil qilish va natijada turli tarzdagi musiqa sadosi (masalan, qisqa va choʻziq, ohangdor va kuchli, qattiq va hokazo tovushlar)ni olish mumkin. Yosh sozandani tarbiyalashda ilk bor uning musiqiy dunyoqarashini hisobga olgan holda rejali ishlar qilinmogʻi kerak. Unda, avvalambor, oʻz qoʻlidagi cholgʻu soziga mehr uygʻotmoq zarur. Yaʼni, oʻquvchiga qiyinchilik tugʻdirmaydigan oson va yoqimli kuylar tanlab oʻrgatish lozim. Oʻquvchi bilan yakka mashgʻulot vaqtida unga tanish boʻlgan milliy ohanglarni oʻrgatish bilan borobar, u eshitmagan yoqimli kuylarni chalib berish oʻqituvchining vazifalaridan biri hisoblanadi [3].

Shu bilan birga dars jarayonida amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifalar ham mavjud. Masalan, chap qoʻl barmoqlarining torlarga bosish kuchining toʻgʻri taqsimlanishi bilan bogʻliq. Cholgʻu pardalarini barmoqlarda katta kuch bilan bosish, qoʻlning siqilishiga olib keladi va natijada tovush sifatsiz sadolanadi. Ijro jarayonida harakatlarning tekisligi, barmoqlarning egiluvchanligi, erkinligi va kuchi – talabada ishonchni shakllantiradi. Ijro holatining toʻgʻri ifoda etilishi milliy cholgʻularning barchasiga birdek taaluqlidir [4].

Masalan, kamoni cholgʻularda kamoni toʻgʻri taqsimlash, tovush kuchini boshqarish, gʻijjak dastasida chap qoʻlning holati, chang cholgʻusida har ikki qoʻlning toʻgʻri qoʻyilishi, choʻplardagi zarblarni toʻgʻri yoʻnaltirilishi, ularning toʻgʻri almashuvi, mizrobli cholgʻularda har ikki qoʻllar holati, puflama cholgʻularda nafas olishni toʻgʻri oʻzlashtirish, cholgʻularni erkin tutish kabi koʻnikmalardagi nuqsonlar ustida jiddiy amaliy mashgʻulotlar olib borish joiz boʻladi.

Ijro mahoratini takomillashtirishdagi yana bir muhim jihat - bu dastali cholgʻularda pozitsiya (barmoqlar joylashuvi) almashtirish usulidir. Milliy cholgʻularimizda bu holat shunday namoyon boʻladi: mizrobli cholgʻularda yuqorilab va pastlab boruvchi, bir barmoqning sirgʻalib boshqa pozitsiyaga oʻtishi, katta intervallarga sakrashda dastlabki notani bir barmoq bilan, navbatdaxisini esa boshqa barmoq bilan pozitsiya almashtirish, bir pardani oʻzida pozitsiya almashtirish va h.k.

Mashgʻulotlar jarayonida torli cholgʻular (gʻijjak, ruboblar, dutorlar)da barmoqlar joylashuvini tanlashda chap yoki oʻng qoʻlning maʼlum kamchiligini tuzatish maqsadida qulay applikatoradan voz kechish holatlari ham mavjud. Masalan toʻrtinchi barmoqning (yoki barmoqlardan birining) yaxshi harakatlanmasligi yoki pardani yaxshi bosa olmasligi (ayniqsa gʻijjak cholgʻusi ijrochilarida koʻp kuzatilgan holat) kabi kamchiliklar mavjud boʻlganida, maqsadga muvofiq tarzda ishlatiladigan applikatorani qoʻllash lozim. Uzoq yillardagi tajribaga yondoshgan holda anʼanaviy cholgʻu ijrochilik yoʻnalishidagi kamonchilarinig aksariyatida 4 chi barmoq harakatini kam qoʻllanishligini kuzatish mumkin.

Kelajakda ijro jarayoni islohatlarida barcha cholg'ularda bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish chora tadbirlari borasida tizimli ishlar olib borish lozim bo'ladi. Masalan: An'anaviy ijroning g'ijjak sozidagi barmoqlarning bir-biri bilan yaqin oraliqlar masofasi ko'p bo'lmasdan harakat qilishlari ayni an'anaga muvofiqdir. Shuningdek, ma'lum musiqiy bo'lakni bir torda qulay barmoqlar joylashuvi bilan chalish imkoniyati mavjud bo'lgan bir paytda aynan shu bo'lakni har-xil tordagi barmoqlar joylashuvi bilan chalish ko'zlangan maqsadga erishishda yaxshi samara beradi.

Har bir cholg'uda musiqa asari ijro etishdan oldin maqomlar tovushqatorlari asosida mashqlar chalish zarur. Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlari, bizga ma'lumki, tanbur cholg'usi pardalari asosida nota yozuvida aks ettirilgan. Rubob, dutor, qonun, nay, qo'shnay kabi cholg'ularda maqomlar mazkur sozlarga moslashtirilgan holda ijro etilishi mumkin. Bu esa yetuk sozandalarimiz ijrochilik faoliyatlari davomida olib borgan ijodiy izlanishlari orqali bizga ma'lum. Yosh sozandalarga (turli xil cholg'u mutaxassisligi bo'yicha) saboq berish jarayonida fonotekadan qay tarzda foydalanish kerakligini o'qituvchi tushuntirishi maqsadga muvofiq. Biz yuqorida mashqlarni an'anaviy musiqa (maqomlar) tovushqatorlari asosida ijro qilish foydadan xoli emasligi haqida fikr yuritdik.

Bunday mashqlarni nota yozuvida har bir mutaxassis o'qituvchi turli ritmik o'lchovlarda, o'quvchining ijro imkoniyatlarini inobatga olgan holda nota daftariga yozib berishi yoki tayyor yozilgan mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Mashqlardan so'ng o'quvchi rejasidagi asarlarning biri ustida ish olib borish mumkin. Avvalambor, berilgan asar matn(tekst)ini o'quvchi yodlamagunicha uning musiqiy bezaklari ustida ishlamaslik kerak. Chunki an'anaviy ijrochiligimizda kuy matni bir xil bo'lgan taqdirda ham uning milliy bezaklarini nota yozuvida to'raligicha aks ettirib bo'lmaydi. Bunday musiqa bezaklarni tinglash yoki jonli ijroni ko'rishdan keyingina o'zlashtirish mumkin. O'qituvchi o'z o'quvchilariga ilk kuy matni (tekst)ini oddiy zarb (shtrix)larda yodlashni tavsiya qilmog'i kerak. Kuy matnini o'zlashtirib yodlagandan so'ng turli shtrixlarni (o'quvchining imkoniyatlariga qarab) qo'llashda amaliy ish olib borish lozim.

An'anaviy ijrochilikda pozitsiya almashuvlari, ya'ni chap qo'l barmoqlarining pardalardagi harakatlarida, nola, qochirim va turli ornamental – bezaklarni ijro qilishda 1, 2-barmoqlar asosiy vazifani bajaradi. 3, 4-barmoqlar esa ko'proq forshlagsimon qochirimlarni ijro qilishda muhim o'rin tutadi. Maqomlarning ashula bo'limlarini cholg'u sozlarida ijro qilishdan oldin uni so'zlari bilan xirgoyi qildirgan ma'qul. Ashula yo'llaridagi kuylarning har bir jumla (fraz)si albatta g'azallar vazn o'lchovlariga to'g'ri kelmog'i lozim. Ana shundagina ashula yo'llarini cholg'ularda to'la va benuqson ijro qilishga erishiladi.

Cholg'u va vokal ijrochiligida asosiy ifoda vositasi bu albatta sifatli tovush bo'lib, ijro mahoratini takomillashtirishda tovush kuchini boshqarish, uni to'g'ri taqsimlay olish malakasini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki birinchi navbatda tovushning badiiy jihati asosiy mezon hisoblanadi. Aniq badiiy tovush ustida ishlash shunchaki tovush chiqarishdan tubdan farq qiladi. Musiqiy tovush sifati, uni sadolantirish, unga sayqal berish ijrochidan yuksak mahorat talab etadi. Bu malaka ustida sozanda o'zining butun faoliyati davomida ishlab borishi zarur [5].

Mumtoz asarlarimiz uning xarakteri, ruhiyati va badiiy obrazidan kelib chiqib tanlangan bo'lishi mumkin. Lekin shunday bo'lishiga qaramay talaba ijro etilayotgan asarni to'liq va puxta o'rganish, unga sayqal berish ko'nikmalarini to'liq o'zlashtirishi talab etiladi. Mizrobli cholg'ularda sifatli tovush torlarga beriladigan zarblar bilan, kamonli cholg'ularda unga kamonni to'g'ri taqsimlanishi, puflab chalinadigan cholg'ularda nafas olishi orqali amalga oshiriladi. Shu sababli ushbu cholg'ularda ijro mahoratini rivojlantirishda toza tovush hosil qilish ustida ishlab borish eng muhim vazifalardan hisoblanib, talaba o'zining eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida muntazam shug'ullanib borishi zarur.

Milliy cholg'ularida ijrochilikni takomillashtirishning asosiy masalalaridan yana biri – musiqiy bezaklar ijrosi masalasidir. Ma'lumki, musiqiy bezaklar dunyoning barcha xalqlari musiqalarida o'sha millatning dardu-quvonchini, uning milliy xususiyatlarini ifodalab beradigan vositalar hisoblanadi.

Talabalar ushbu ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi uchun ustoz san’atkorlarning ijrolarini tinglashi, ularda ishlatilgan musiqiy bezaklarni o‘rganishi, ularni boshqa ijrochilar talqinida ham eshitib qiyoslasa ayni muddao bo‘ladi. Chunki har bir cholg‘uda milliy bezaklar (“to‘lqinlashtirish”, “sayqal” [6], “molish”, “kashish” nola-qochirimlar va h.k.) muayyan barmoqlar bilan ijro etilgandagina o‘z xususiyatiga ega bo‘ladi. Amaliy ijrochilik mashg‘ulotlarida ushbu murakkab ijro ko‘nikmalarini to‘liq ijrosini hosil etishda odatda talabalar nolalar tovushining sadolanish davomiyligini sezmasliklarini guvohi bo‘lamiz. Aynan mana shu kamchiliklar ijro mahoratining susayishiga sabab bo‘ladi.

Yuqorida to‘xtalib o‘tilgan ijro mahoratini takomillashtirish mavzusi anchagina keng masalalardan ekanligi va ushbu maqolada uning barcha jihatlarini batafsil yoritish imkoni yo‘qligi bois, masalaning asosiy jihatlariga to‘xtalib o‘tdik. Umuman milliy cholg‘ularda ijro mahoratini takomillashtirish musiqiy ta’limning zamonaviy talablaridan biri hisoblanadi. An’anaviy cholg‘u ijrochiligida milliylik, o‘ziga xoslik va ta’sirchanlik kabi fazilatlar hamisha qadrlidir. Shunday ekan, o‘zbek xalqining boy musiqa merosini o‘rganish va uni keng jamoatchilikka targ‘ib qilish, san’atimizning jonkuyar tashabbuskorlari zimmasida bo‘lmog‘i zarur. Musika madaniyatimiz juda qadim, betakror va noyob an’analarga ega bo‘lsada, u mohir ijrochilar tomonidan yangi ijro uslublar bilan boyitib kelingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PQ-112-son 02.02.2022. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (lex.uz)
2. Nazarov O. Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti. -T.: 2008. <https://arm.uzmmsi.uz/>
3. Qosimov R. An'anaviy ijrochilik. – T.: Musika, 2007. 7.б.
<https://library.uzfi.uz/ebooks/view?id=10615>
4. Toshmuhammedov M. G'ijjak darsligi. –T.: O'qituvchi, 1995.
5. Azizboyev S. An'anaviy cholg'u ansambli. –T.: Musiq, 2009. Toshmuhammedov M. G'ijjak darsligi. –T.: O'qituvchi, 1995. <https://arm.uzmmsi.uz/>
6. I. Akbarov "Muzika lug'ati" G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1987.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 1-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-1

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-1

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz